

ABU RAYHON BERUNIY-BIZNING SOHAMIZDAGI ILK "KO'PRIK " VA QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK ASOSCHISI

Xursanova Mehribon Anvar qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi

mehribonxursanova99@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning filologiya, xususan, xorijiy tillarni o'rganish va adabiyotshunoslik sohasidagi beqiyos xizmatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda olimning sanskrit, arab va yunon adabiyoti namunalarini o'zaro qiyoslagani hamda chet tillarini o'rganish orqali xalqlar o'rtasida madaniy ko'prik qurgani talaba nigohi bilan yoritilgan. Shuningdek, Beruniyning tarjima nazariyasi va qiyosiy adabiyotshunoslik (komparativistika) tamoyillarini shakllantirishdagi o'rni zamonaviy tilshunoslik prizmasi orqali kengroq ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Abu Rayhon Beruniy, xorijiy til, tarjima mahorati, qiyosiy adabiyotshunoslik, sanskrit, madaniyatlar muloqoti, filologik tahlil, poliglottiya, lingvokulturologiya.

Abstract:

This article analyzes the incomparable contributions of the polymath Abu Rayhan Beruni to the fields of philology, particularly foreign language acquisition and literary studies. The research examines Beruni's comparative analysis of Sanskrit, Arabic, and Greek literature, as well as his role in building cultural bridges between nations through foreign language mastery, from a student's perspective. Furthermore, Beruni's role in shaping the principles of translation theory and comparative literature (comparativism) is explored more extensively through the lens of modern linguistics.

Keywords: Abu Rayhan Beruni, foreign language, translation skill, comparative literature, Sanskrit, intercultural communication, philological analysis, polyglotism, ethnolinguistics.

Ushbu maqolada xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba sifatida, o‘z sohamizning haqiqiy poydevori bo‘lgan alloma Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosiga to‘xtalib o‘tmoqchiman. Ko‘pchilik Beruniy bobomizni faqat aniq fanlar olimi deb bilsa-da, aslida u o‘z davrining eng ko‘p tillarda gapira oladigan va mohir tarjimoni bo‘lgan. Beruniyning tilshunoslik sohasidagi qarashlari shunchalik zamonaviyki, u o‘zining mashhur asarlarida begona tilni o‘rganish nafaqat muloqot, balki o‘sha xalqning haqiqiy qiyofasini, tarixini va ichki dunyosini ko‘rish vositasi ekanini ta’kidlaydi.

Beruniy bobomizning til o‘rganish uslubi hozirgi zamon metodikasidan qolishmaydi. O‘sha davrda hozirgidek mukammal lug‘atlar yoki raqamli resurslar bo‘lmasa-da, u sanskrit tili kabi o‘ta murakkab tillarni mukammal egallagan. Beruniy uchun til shunchaki aloqa vositasi emas, balki boshqa bir dunyoni anglash uchun kalit edi. U o‘z asarlarida xalqlarning tillarini o‘rganish orqali ularning urf-odatlarini, diniy qarashlari va badiiy tafakkurini tushunishga harakat qilgan.

Beruniyning adabiyotshunoslikdagi eng katta jasorati – bu qiyosiy tahlil (komparativistika) usulidir. U o‘z asarlarida hind adabiyoti dostonlarini qadimiy yunon adabiyoti dostonlari va namunalari bilan o‘zaro solishtirgan. Masalan, hind xalqining falsafiy va badiiy qarashlarini yunon mutafakkirlari Platon va Aristotel fikrlari bilan qiyoslashi uning dunyo adabiyotini yagona bir butunlikda ko‘ra olganidan dalolat beradi. Shuningdek, Beruniy tarjima jarayonida so‘zlarni yuzaki o‘girmasdan, balki ularning ma’no qatlamlarini, uslubiy bo‘yoqlarini saqlashga harakat qilgan. U turli tillardagi o‘simlik va dori-darmon nomlarini o‘rganar ekan, ularning kelib chiqishi va o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilib, dunyo terminologiyasi rivojiga ham ulkan hissa qo‘shgan.

Men uchun ushbu allomaning muhim jihati shundaki?

Bo‘lajak xorijiy til mutaxassisi sifatida Beruniy shaxsi men uchun bir necha sabablarga ko‘ra juda qadrlil va namunalil. Birinchidan, u menga til o‘rganish faqatgina grammatik qoidalarni yodlash emas, balki dunyoqarashni kengaytirish ekanini o‘rgatadi. Hozirgi kunda chet tillarini ko‘pincha faqat muloqot yoki karyera uchun o‘rganishadi, Beruniy esa til orqali tamaddunlar o‘rtasida madaniy va ilmiy elchi bo‘lish mumkinligini amalda isbotlagan.

Ikkinchidan, Beruniyning madaniy xolisligi meni hayratga soladi. U o‘zi o‘rganayotgan har qanday begona madaniyatga nisbatan kibr bilan emas, balki chuqur hurmat va ilmiy qiziqish bilan yondashgan. Bu esa bugun biz o‘rganayotgan chet tili va adabiyotini xolis tahlil qilishimiz, millatlararo bag‘rikenglikni tushunishimiz uchun eng asosiy professional sifatdir. Qisqacha aytganda, Beruniy — men intilayotgan "mukammal mutaxassis" obrazining tarixiy timsolidir.

Xulosa o‘rnida aytishim mumkinki, Abu Rayhon Beruniy bizning sohamizda o‘chmas iz qoldirgan. U turli madaniyatlar, dinlar va tillar o‘rtasida buzilmas ilmiy ko‘prik qura olgan buyuk simodir. Beruniy merosi biz kabi bo‘lajak tilshunoslar uchun shunchaki tarixiy ma‘lumot emas, balki xalqaro muloqot, tarjima nazariyasi va adabiy tahlil yo‘lidagi eng to‘g‘ri va ishonchli yo‘nalishdir. Uning yo‘li – madaniyatlararo do‘stlik va ilm orqali dunyoni anglash yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. I tom. (Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar).

– Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1968.

Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. (Tanlangan asarlar. II tom). – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1965.

Abu Rayhon Beruniy. Kitob as-Saydana fit-tib (Tibbiyotda dorishunoslik). – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1973.

Shomusaroyev S. G‘. Beruniy va jahon adabiyoti. – Toshkent: "O‘qituvchi", 1994.



Gʻafurov B. Gʻ. Abu Rayhon Beruniy va uning jahon madaniyati tarixidagi oʻrni. – Toshkent, 1973.

Ziyo A. Oʻzbekiston davlatchiligi tarixi. – Toshkent: "Sharq", 2000.